



## "JINOYAT VA JAZO" ASARIDA QAHRAMON RUHIYATINING BADIY KO'LAMI

Abdurahmonova Gulorom Iskandar qizi<sup>1</sup>, Hafizova Feruza Odiljonovna<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Termiz davlat universiteti 2 - bosqich talabasi  
+998912440253

<sup>2</sup> Ilmiy rahbar. Termiz davlat universiteti  
O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasasi o'qituvchisi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7161822>

### ARTICLE INFO

Received: 30<sup>th</sup> September 2022

Accepted: 04<sup>th</sup> October 2022

Online: 07<sup>th</sup> October 2022

### KEY WORDS

davr atmosferasi, xarakter ziddiyatlari, ruhiy tasvirlar, psixologik talqinlar...

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada buyuk yozuvchi Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy asarlarida qahramonlarning ichki kechinmalari, obrazlarning ruhiy holatlari siyratini aks ettirishdagi o'ziga xosliklar, qahramonlarning ijtimoiy hamda ruhiy holat talqinlari, o'zaro qarama-qarshi xarakterlar tasviri bilan birga psixologik, falsafiy muammolar sintezlangan. Bunda yozuvchining "Jinoyat va Jazo" asari asosidagi tasvirlar buyukligi realliklarini badiiy talqin etish orqali mahoratli ijodkor asarining mohiyati va ko'lamdorligi bilan davr atmosferasi yuqori darajada akslantirilganligini yoritib berishga harakat qildim.*

Nafaqat rus xalqining, balki butun dunyo tan olgan o'tkir nafasi, jonkuyar, mahoratli yozuvchisi Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy Moskvada 1821-yilda tavallud topgan. Ijodiy faoliyati 1844-yilda boshlangan. Birinchi romani — "Bechora odamlar" da (1846) xo'rlangan, ijtimoiy adolatsizlikka duchor bo'lgan "kichkina odamlar" ning qismati hikoya qilingan. "Qiyofadosh" (1846), "Oq tunlar" (1848) qissalari ham ijtimoiy mavzuda. "Jinoyat va jazo" (1866), "Telba" (1868) romanlarida rus xalqining ma'naviy muammolari badiiy bo'yoqlarda yaqqol aks ettirilgan. "Jinlar" (1871—72), "O'smir" (1875) romanlarida esa rus "oqsuyaklari" tabaqasi, amaldorlari orasida ma'naviy qashshoqlik, amalparastlik, ochko'zlik va xudbinlik kabi illatlar chuqur ildiz otgani ko'rsatilgan, ichki-milliy muammolarni boshqa bir xalq hisobiga hal

etib bo'lmasligi e'tirof etilgan. "Og'a-ini Karamazovlar" (1879—80) romanida jamiyat va shaxs o'rtasidagi chuqur ziddiyat, ruhiy inqiroz va fojia o'z ifodasini topgan.

Qozoqboy Yo'ldoshev shunday deydi: "Mening nazarimda, insoniyat asli taraqqiyotdan quyiga qarab harakatlanayotgandek. Shu ma'noda aytadigan bo'lsak, insoniyatning badiiy tafakkur tarzi ham asrdan-asrga sayozlashib, g'ariblashib, siyqalashib borayotgandek" Xuddi shunday asarda chekka, isqirt bir qovoqxonada o'tirib hayotini hikoya qilayotgan Marmeladov va u yerga tasodifan kirib qolgan Raskolnikovlar tasviri bilan boshlanadi. Kitobni o'qish mobaynida o'z-o'zidan turli, shu bilan birga haqli savollar tug'ilishi tabiiy albatta. Misol uchun: Nimaga aynan voqea boshlanmasi Marmeladovning



qiyin, muammolarga to'la hayoti hikoyasi bilan boshlangan?nima uchun bosh qahramon qilib talaba shaxsi tanlangan?yozuvchi asari uchun lombarchi obrazini nega ayol kishi qilib oldi?Raskolnikovning qotillikka qo'l urishiga asosiy sabab nimada edi?va qilgan jinoyatining jazosi uning uchun aslida qanday edi?

Jinoyat-ushbu tushuncha hammada har xil.Ammo u xoh katta bo'ldin,xoh kichkina,oddiy bo'lsin,yoki murakkab u uchun jazo muqarrardir.

Raskolnikov oddiy,kambag'al bir talaba.Shu bilan birga juda aqlli,hayot mohiyatini teran anglagan,oq-qorani ajrata oladigan obraz.Universitetda o'qib yurgan davrlarida do'stlari tomonidan tortinchoq va biroz gerdaygan, bilimi yaxshi bo'lganligi sababli o'zini yuqori oladigan kishi sifatida ta'riflangan.Ammo Radion tashqi tarafdin shunday ko'rinsada,doimo jamiyatdagi nohaqliklarga qarshi bo'lgan.

Asarga epigraf qilib olingan "Kambag'allik ayb emas, yo'qchilik illatdir"iborasi ham mohiyatni anglashga turtki bo'lib xizmat qiladi.Xo'sh biz yuqorida Raskolnikovni kambag'al deb ta'rifladik.Uning yo'qchil bo'lib qolishiga nima sabab bo'ldi? Bunga asos qilib qay bir ma'noda aynan jamiyatning ham ta'siri bor.Xuddi shunday asarda o'sha davr insonlarining deyarli barchasi yo'qlikda,nochorlikda yupun va och-nahor holatda ifodalangan.Aynan shu jihatlar qahramonning jinoyat sodir qilishiga olib keladi.

Dostoyevskiy "Jinoyat va Jazo"sida sudxo'r ayol obrazi bilan jamiyatda bo'lgan ijtimoiy,psixologik holatlarni naqadar tubanlashib,razolatga yuz tutganini aks

ettirib bergan.Raskolnikovni esa mana shu yovuzlikka qarshi kurashish uchun maydonga chiqaradi.Raskolnikovni qotillik qilishi dastlab,muhtojligi,onasi va singlisining yaxshi hayot kechirishini ta'minlash uchungina bo'lib tuyuladi.Aslida esa adolatni qaror toptirish,insonlarni yovuzlik qaridan olib chiqish,yaxshi kunlar,yaxshi hayotga erishish uning asl maqsadi edi.

Bu yerda yana Sofiya Semyonovna Marmeladova va Adoti Ramanovna kabi obrazlar ham timsollantirilgan.Ular Rodyaning ruhiyatida hamisha ta'sir ko'rsatib turishgan.Ayniqsa,Sonyaning Radionga bo'lgan sevgisi sadoqati tufayli uni qiyinchiliklardan ozod bo'lishiga yordam beradi.

Romanda Radionning ichki kechinmalari yuqori mahorat bilan tasvirlangan.Uning jinoyatni sodir etgandan keyingi ruhiy holati,viydon azobida qiynalishi,hattoki,tushlarida ham sudxo'r ayolni o'ldirgani voqealarini ko'rib chiqishi ham yozuvchining go'zal iste'dodidan darak beradi.

Roman xotimasida Raskolnikov aybini tan olishi,Sibirga surgun qilishini bilan yakunlanadi.Ammo bu asl xotima emas,Raskolnikov jamiyatdagi illatlar,tikanlardan bittasini bo'lsada sug'urib tashlay oldi.Haqiqatni oz bo'lsada yuzaga chiqardi.Vaholanki,mana shu niyat uning asl maqsadi ham aynan shu bo'lgan edi.

Dostoyevskiy romani orqali xalqini erkinligi,jamiyat farovonligiga erishish orzusi bilan yuzaga kelgan desak mubolag'a bo'lmaydi.Albattaki, u buning uddasidan chiqa oldi.

## References:

- 1.Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy.Jinoyat va Jazo.M.1866.



2.Qozoqboy Yo'ldoshevning Badiiy tahlil asoslari.T.

3.ziyo.uz.